

“SAB’AI SAYYOR” ASARIDAGI AYRIM OBRAZLAR TAVSIFI

Nodirbek Xabibillayev,

Namangan davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kungacha aksariyat insonlarning ushbu asar boyicha fikrlarini o`rganganimda ularning asar g`oyasini deyarli tushunishmaganiga guvoh bo`ldim. Mazkur asar haqida maqola yozish fikri ana shundan keyin paydo bo`ldi. Aslida, bu butun boshli yangi tadqiqot qilish uchun asos bo`lishi ham mumkin. Ushbu maqola ana shunday yirik tadqiqotlarga debocha vazifasini o`tashi mumkin.

Tayanch so`z va iboralar: Bahrom, Dilorom, Moniy, Haqiqiy ishq, Nafs, sarob, sinov, dunyo.

Navoiyning boshqa asarlari qatori ushbu “Sab’ai sayyor” asari ham bir muncha falsafiy va tasavvufiy ahamiyatga ega asardir. Ijodkorning barcha asarlarida kelgan ishq obrazi Allohga bo`lgan ishq bo`lganidek, qahramonlar ham botiniy ma’noda tasavvufiy obrazlar vazifasini o`taydi. Quyida ana shu holatlarning ayrimlari bayon etiladi.

BAHROM - kecha-yu kunduz aysh-u ishrat va ovchilik bilan shug`ullanuvchi shoh timsoli. Ollohga mehr qo`ygan inson balolanishi kerak, deyiladi. Balolanish bu sinov jarayonidir. Bu sinovdan o`tgan insonning esa ko`ngli ravshanlashadi. Bahromning kecha-yu kunduz aysh-u ishrat qilishi – uning ko`ngli ravshanligidandir. Uning ovchilik bilan shug`ullanishi uning bu dunyodagi hayvonlarni o`ldirish emas, balki yomon insonlarning ko`ngliga Allohga bo`lgan ishqni solish, ularni yaxshi yo`lga kirib ketishlari uchun qilgan sa`y harakatidir.

DILOROM - asarda Bahromning ko`ngliga tushgan haqiqiy inson obrazidir. Ko`ngliga haqiqiy ishq tushgan odam balolanish kerak, deb aytdik. Balolangandan so`ng haqiqiy ishq soyasi (sarob) ko`rinadi. Keyin sinovning navbatdagi bosqichidan o`tilganidan so`ng esa haqiqiy ishq dohil bo`ladi.

Bu bosqichlardan o`tish Bahromga oson bo`lmaydi. U Diloromdan ayrilganidan so`ng kecha-yu kunduz nola qiladi. Avval yoqasini chok etib, o`zining barcha a`zolariga zulm ko`rsatib, tishlab tashlaydi. Boshini yerlarga urib yoradi. Yarim kechagacha badanini tishlab nola-yu faryod qiladi. U nola qilganida ko`kdagi quyosh ham, oy ham o`rtandi.

Mana shunday sinovlardan charchagan Bahrom axiyri sarkarda-yu mulozimlariga qarab shunday deyish darajasigacha boradi:

Tig`ila ko`kragimni chok aylang,

Bir iki zarb ila halok aylang.

Qutqaring joni notavonimni,

Bihil ettim borig`a qonimni.

O`ldurub g`avrima yetung oxir,

Ming o`lumdan xalos etung oxir.

Bahromning bunday azob chekishini ko`rgan el-ulus va saroy a`yonlari-yu tabiblar uning dardiga davo topishga harakat qilishib, har xil tadbirlarni o`ylab topishadi. Yettita qasr qurdirib unga bir-biridan go`zal parilarni qo`yib Bahromning ko`nglini xushlashga harakat qilishadi. Diloromni esdan chiqarishi uchun qilingan bu harakatlar ish bermaydi.

Bu voqealar Bahromning ishqini sinashning keyingi bosqichi bo`lib, Bahrom bu bosqichdan ham o`tadi. Agar u yetti qasr ichidagi parilar bilan birga bo`lib, Diloromni esdan chiqarganida sinovdan o`tolmagan bo`lardi. Va asar so`ngida Diloromni (haqiqiy ishq obrazini) qayta uchratmagan bo`lar edi.

MONIY – Bahromning qalbidagi Allohga bo`lgan ishqni yanada kuchaytirgan obraz. U “Farhod va Shirin” dostonida Farhodning qalbida Allohga bo`lgan ishqni naqshlab (yanada go`zallashtirib) uni komil inson sari harakat qilishida o`z hissasini qo`shgan edi. Bu asarda ham u Bahromning ishqini kuchaytirgan obraz sifatida qatnashdi.

Navoiy bu obraz orqali bu yumaloq dunyo ham charxpalak kabi aylanib turishiga, kimdir kimgadir yaxshilik qilsa, bu yaxshilik, albatta, o`ziga qaytib kelishiga ishora qiladi. Asarda uning harakatlari orqali bu dunyodagi barcha yaxshi ishlar javobsiz qolasligini ko`rishimiz mumkin.

Ko`p firibgarliklar qiladi. Atrofdagilar uning qilmishlaridan xabar topganida ham u bu ishini to`xtatmaydi. Oxirida shoh uning bu firibgarliklaridan xabar topib, uni zindonga tashlaydi. Zindondan qochib o`zga yurtda boyluk orttirib, aybini yuvish uchun shohga ularni hadya etadi.

Navoiy bu obraz orqali dunyodagi barcha ishlar javobsiz qolmasligiga ishora qiladi.

Asarda bu qahramon rostgo`ylik timsoli sifatida gavdalanadi. Muallif bu obraz orqali rostgo`ylikning qanday mukofotlar keltirishini isbotlab beradi.

Sabrsiz, yolg`onni qo`rqmay gapiraveradigan, baxtsizlik timsoli. Yolg`onni ko`p gapiraverganidan hovuzga Mudbir emas, Muqbil tushadi. U hovuzning suvini ichganidan keyin yolg`on gapirsa qorni shshib o`lishini bilsa ham shoh oldida yolg`on gapiradi va vafot etadi. Muqbil esa rostgo`yligi sababli maqsadiga yetadi.

Xulosa qilib, Navoiyning bu dostonini Haqiqiy ishq yo`liga kirgan, bu yo`lda har xil balolarni boshidan kechirgan bir inson azob uqubatlari tasvirlangan asar, deb aytishimiz mumkin. Undagi obrazlar esa, uni sinagan va unga dalda bergan qahramonlar sifatida tasvirlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Sobirova, M.** (2023). Teaching language phenomena through text analysis on the basis of anthropocentric approach. International bulletin of applied science and technology. Impact factor: 8,2 SJIF = 5.955 ISSN: 2750-3402 Volume 3, Issue 4, April. 481-486-pages. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7827423>
2. **Sobirova, M. & Babaxanova, D. A.** (2023). Обучение языковым явлениям на основе анализа текста. “Этнокультурный и социолингвистический аспекты в теории и практике преподавания языков в негуманитарных вузах” mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Минск, 30 март 2023 й., – В. 299-302. <https://rep.bntu.by/handle/data/130394>
3. Абдулвохидов Э. МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ //Conferencea. – 2023. – С. 16-20.
4. Абдулвохидов Э. Педагогическая концепция писателей как средство обогащения педагогического процесса //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 666-675.
5. Абдулвохидов Э. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ (на примере педагогической концепции А. Авлони) //Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya. – 2023. – С. 206-207.
6. **Egamberdiyeva S.** BOLALAR FOLKLORIDA BESHIK QO'SHIQLARI POETIKASI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 61-67. <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/4233/4052>
7. **Мамажоновна S. E.** O'ZBEK XALQ OG'ZALI IJODIDA ONALIK FOLKLORI POETIKASI //THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 67-73. <https://interonconf.org/index.php/taare/article/view/2654/2375>
8. **Мамажоновна E. S.** O 'ZBEK VA TURK ALLALARIDA OTA OBRAZINING QIYOSIY TALQINLARI //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 561-564. <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/1851/1689>
9. **Habibullayev, Nodirbek Nosirjon O'G'Li** QOZOQ VA O'ZBEK TILIDAGI MODAL SO'ZLAR CHOG'ISHTIRMASI // ORIENSS. 2023. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/qozoq-va-o-zbek-tilidagi-modal-so-zlar-chog-ishtirmasi> (дата обращения: 01.02.2024).

10. Tojiddinova N. H. LINGUOCOGNITIVE FEATURES OF THE PUZZLES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1099-1101. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1922/1484>
11. Tillayeva R. O ‘QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRIHSDA TADQIQOT ISHI TASHKIL ETISH SAMARADORLIGI //O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI YOSH FILOLOG OLIMLAR JAMIYATI. C.439.https://tsuull.uz/sites/default/files/02_06_22_toplam_til_va_adabiyot_ilmiy_va_amaliy_izlanishlar_yolidagi_0.pdf#page=439
12. Убайдуллаев Ш.Н. Чет тил дарсларида маданиятлараро мулоқотга ўргатишнинг асосий хусусиятлари. Best Practices in Distance Education in Learning Foreign Languages. International Scientific Conference. –Т., UzSPIC. 2009. – P. 277-279.
13. Убайдуллаев Ш.Н. Символические значение цвета в фразеологических единицах на материале английского, немецкого, русского и узбекского языков. International Scientific Journal. Philadelphia, USA. 2019. №12. –P. 42-44. (ISSN:2409-0085)
14. Dehqanova Guljahon Ahmadjonovna. (2023). NATIONAL -CULTURAL CHARACTERISTICS OF LEXICAL UNITS EXPRESSING THE ECONOMICAL CONDITION OF A PERSON’S LIFE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7951344>
15. Dehqanova G. A., Polvanova M. F. NATIONAL-CULTURAL SPECIFICITY OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 159-164.<https://researchedu.org/index.php/re/article/view/545/544>
16. Bobajonova Mayjuda. International Journal of Formal Education. ISSN:2720-6870 . Development of Lingvokultural Inofons Competense on Russian Lessons. <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe>
17. Ибрагимова Н. Т. АКТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ РУССКОМУ ЯЗЫКУ У УЧАЩИХСЯ УРОВНЯ В1 СРЕДНИХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 166-170. <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4168/5041>
18. Пардабоева Д. Р. Методы обучения на уроках русского языка //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 957-961.
19. Пардабоева Д. Р. Модели личностно-ориентированного подхода в обучении русскому языку //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 952-956.

- 20.Олимова Моҳидил.СВОЕОБРАЗНЫЕ ЧЕРТЫ ИВАНА АЛЕКСЕЕВИЧА БУНИНА .International journal of advanced research in education, technology and management ISSN:2349-0012.[vol. 2.2, 2- hind.pdf](#)
- 21.R.T. Tillayeva. M.M.Q. Mo'minova. O'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishda adabiy-tanqidiy materiallardan foydalanish metodikasi "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz November 2023 / Volume 4 Issue 11 https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Hj9TC0QAAAAJ&citation_for_view=Hj9TC0QAAAAJ:u5HHmVD_uO8C
- 22.Komiljon o'g O. Y. et al. CHARACTERISTICS OF LITERARY TRENDS OF AMERICAN LITERATURE //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 1202-1208. <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/download/9347/6053>

